

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI
NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI
NUROTA TUMANI STATISTIKA BO‘LIMI**

**NUROTA TUMANI NING
IJTIMOIY-IQTISODIY HOLATI
AXBOROTNOMASI**

**2025-YIL
YANVAR–SENTABR**

Qisqartma va shartli belgilar


%	-	foiz	0,0	-	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd	-	milliard	m.	-	sentabra
mln	-	million	-	-	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln AQSH doll.	-	million AQSH dollari	ga	-	gektar
kv.	-	kvadrat	tn	-	tonna
km	-	kilometr	yo‘lovchi/km	-	yo‘lovchi-kilometr
m	-	metr	1), 2), 3)	-	izohning mavjudligi

MUNDARIJA

Nomi	bet.
NUROTA TUMANINING XARITASI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI	4-5
I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI	6-8
II. SANOAT	9-12
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	13-18
IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH	19-23
V. XIZMATLAR	24-27
VI. ISTE'MOL BOZORI	28-31
VII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	32-36
VIII. KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI	37-38
IX. MOLIYAVIY FAOLIYAT	39-40
X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	41-46
XI. DEMOGRAFIK HOLAT	47-50
XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	51-54

Navoiy viloyati Nurota tumanining XARITASI

Tashkil topgan yili 1926-yil
Markazi: Nurota tumani
Maydoni- 5,94 ming km kv



**Nurota tumani to'g'risida
umumiy ma'lumotlar**

Viloyat	Navoiy
Tuman	Nurota
Markazi	Nurota shahri
Tashkil topgan vaqti	29.09.1926-yil
Umumiy avgustdoni, <i>ming km²</i>	5,94
Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar	-
Mahalla fuqarolari yig'inlari soni	28 ta
Aholi punktlari	55 ta
2025-yil 1-oktabr holatidagi doimiy aholi soni, ming kishi	91,7
sh. j. : erkaklar, ming kishi	47,3
ayollar, ming kishi	44,4
Viloyat	Navoiy
Chegaradosh viloyatlar	Samarqand, Jizzax.
Chegaradosh tumanlar	G'ozg'on shahar, Navbahor, Xatirchi, Konimex tumanlari

I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY- IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2025- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd so'm	2025- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da	ming so'm	2025- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da

Sanoat	430,3	105,3	4 717,4	103,9
Asosiy kapitalga investitsiyalar	7 986,9	2,2 m.	87 575,6	2,2 m.
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 683,3	103,2	18 456,0	101,8
Qurilish ishlari	363,7	66,8	3 987,9	66,0
Chakana tovar aylanmasi	570,6	110,2	6 256,6	108,8
Bozor xizmatlari	505,6	114,1	5543,5	112,6


	Jami		Aholi jon boshiga	
	mln AQSH doll.	2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da	AQSH doll.	2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da

Tashqi savdo aylanmasi	6,1	90,9	67,4	89,7
Eksport	4,4	84,2	48,3	83,0
Import	1,7	113,9	19,1	112,4

**Nurota tumanining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini
Navoiy viloyati bilan solishtirma jadvali
(yanvar-sentabr)**

	Navoiy viloyati		Nurota tumani		Nurota tumanining Viloyatdagi ulushi, % da	
	2025-yil mlrd so'm	2024-yilga nisbatan, % da	2025-yil mlrd so'm	2024-yilga nisbatan, % da	2024-yil	2025-yil
Sanoat mahsuloti	137 300,0	108,5	430,3	105,3	0,4	0,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17 339,2	104,4	1 683,3	103,2	9,4	9,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	32 691,4	128,9	7 986,9	2,2 m.	14,1	24,4
Qurilish ishlari	10 489,7	109,1	363,7	66,8	5,7	3,5
Chakana savdo tovar aylanmasi	11 549,0	110,2	570,6	110,2	5,1	5,1
Xizmatlar, jami	17 788,7	113,6	505,6	114,1	2,9	2,8
Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH doll.)	1 286,2	102,3	6,1	90,9	0,5	0,5
Eksport (mln AQSH doll.)	975,4	107,9	4,4	84,2	0,6	0,5
Import (mln AQSH doll.)	310,8	87,9	1,7	113,9	0,4	0,6

**Nurota tumanining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida kichik tadbirkorlik
(biznes) subyektlarining ulushi
(2025-yil yanvar-sentabr, % da)**



II. SANOAT

Tumanda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (birlikda)


	2024- yil 1- oktabr holatiga	2025- yil 1- oktabr holatiga
Sanoat korxonalari, jami	200	191
- yirik korxonalar	1	2
- kichik korxona va mikrofirmalar	199	189
- shu jumladan: xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	9	25

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Nurota tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 430,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,3 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari hajmi (yanvar-sentabr, mlrd so'm)

	2024-yil	2025-yil
Jami	380,5	430,3
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	15,1	28,3
Ishlab chiqaradigan sanoat	365,4	402,0
Sanoatning boshqa tarmoqlari	-	-

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari hajmidagi ulushi (2025 yil yanvar-sentabr, % da)




Sanoat mahsuloti hajmi va fizik hajm indeksi (yanvar-sentabr)



2025- yil yanvar-sentabr oylarida tuman bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 717,4 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari dinamikasi**
(yanvar-sentabr, *ming so'm*)




Sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi hajmi
(2025-yil yanvar-sentabr)

	Sanoat mahsuloti hajmi		tarmoq korxonalari		hududiy korxonalar	
	mlrd so'm	o'sish sur'ati, % da	mlrd so'm	jami hajimga nisbatan ulushi, % da	mlrd so'm	jami hajimga nisbatan ulushi, % da
Navoiy viloyati	137 300,0	108,5	118 947,5	86,6	14 367,1	10,5
Nurota tumani	430,3	105,3	78,2	18,2	352,1	81,8

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 380,0 mlrd so'm bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,3 % ni tashkil etgan.



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir; Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat – yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yokikomponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlabchiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish) ni o'z ichiga oladi.


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 1 683,3 mlrd so‘mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 1 661,3 mlrd so‘mni (103,1 %), o‘rmon xo‘jaligi 21,2 mlrd so‘mni (103,0 %), baliqchilik xo‘jaligi 0,8 mlrd so‘mni (2,3 m.) tashkil qildi. Viloyat qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida tuman ulushi 9,7 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘rish sur‘atlari (2025-yilning yanvar-sentabr)

	Mrld so‘m	O‘rish sur‘ati, %
Navoiy viloyati	17 339,2	104,4
Nurota tumani	1 683,3	103,2

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (2025-yilning yanvar-sentabr, % da)



Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 86,4 % ni dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 10,1 % ni fermer xo‘jaliklariga, 3,5 % ni qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

DEHQONCHILIK



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 250,5 mlrd so‘mni yoki 2024-yilning shu davriga nisbatan 99,7 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 15,2 ni tashkil qildi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish (2025-yilning yanvar-sentabr, dastlabki ma’lumotlar)

	Fermer xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘sinh sur‘ati, % da	tonna	o‘sinh sur‘ati, % da	tonna	o‘sinh sur‘ati, % da
Jami don	4 613	102,5	1 152	102,8	334	58,4
Kartoshka	2 733	106,3	3 776	101,8	47	114,6
Sabzavotlar	3 379	113,0	7 376	75,3	165	114,7
Poliz	4 426	109,5	4 156	106,3	487	134,8
Mevalar va rezavorlar	3 676	96,6	6 511	101,5	933	132,3
Uzum	504	117,2	4 517	105,5	53	113,4

CHORVACHILIK



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1 400,3 mlrd so'mni yoki 2024-yilning shu davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy ulushi 84,8 ni tashkil etdi.

Xo'jaliklar toifalari bo'yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish (2025-yilning yanvar-sentabr, dastlabki ma'lumotlar)


	Jami		shu jumladan					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati, foizda	miqdori	o'sish sur'ati, foizda	miqdori	o'sish sur'ati, foizda	miqdori	o'sish sur'ati, foizda
Go'sht tirik vaznda, tonna	19 598	103,9	936	109,7	17 758	103,1	904	117,3
Sut, tonna	30 644	100,2	2 340	115,6	28 058	99,0	246	110,9
Tuxum, ming dona	17 601	101,9	2 042	119,5	15 420	107,4	139	11,5

Xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni (2025-yil 1- oktabr holatiga)

	Jami		shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	bosh	o'sish sur'ati, %	bosh	o'sish sur'ati, %	bosh	o'sish sur'ati, %	bosh	o'sish sur'ati, %
Yirik shoxli qoramollar	47 075	101,8	4 685	100,3	41 554	101,5	836	135,7
shu jumladan: sigirlar	22 041	100,1	2 159	104,0	19 648	99,6	234	106,4
Qo'yalar va echkilar	461 750	98,7	83 132	102,3	286 558	101,8	86 870	86,9
Parrandalar	173 987	100,2	21 956	112,4	150 933	108,8	1 104	7,2

Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 88,2 foizni, fermer xo'jaliklarida 10,0 foizni, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida 1,8 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 89,1 foizni, qo'y va echkilar 63,2 foizni, parrandalar 86,7 foizni tashkil qildi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi (% da)



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarida xizmat ko'rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida asosiy va takroriy, bog'larning qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yig'ib olingan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari – oilaviy avgustda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi. Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go’sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya suti bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilavgustdi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorida jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.


Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 7 986,9 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,2 martani tashkil etdi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 7 986,9 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shuningdek, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha 11,3 mlrd so‘m markazlashgan investitsiyalar va 7 975,6 mlrd so‘m markazlashmagan investitsiyalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Nurota tumanida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2025- yil yanvar-sentabr, mlrd so‘m)




**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar
(2025-yil yanvar-sentabr)**

	Mrld so'm	O'sish sur'ati, % da	Jami hajimga nisbatan ulushi, % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	7 986,9	2,2 m.	24,4
Markazlashgan investitsiyalar:	11,3	95,2	0,1
byudjet mablag'idan	11,3	95,2	0,1
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-
Markazlashmagan investitsiyalar:	7 975,6	2,2 m.	99,9
Korxona o'z mablag'lari	81,5	118,1	1,0
aholi mablag'lari	189,7	106,5	2,4
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	7 704,0	2,3 m.	96,5
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	0,4	100,7	0,01

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi
(2025-yil yanvar-sentabr)**


	O'lchov birligi	Jami	Shu jumladan:		
			Qurilish montaj ishlari	Asbob- uskunalar va jihozlar	Boshqa kapital ishlar va sarflar
Navoiy viloyati	mlrd so'm	32 691,4	21 245,8	9 698,7	1 746,9
<i>Jamidagi ulushi</i>	<i>% da</i>	<i>100,0</i>	<i>65,0</i>	<i>29,7</i>	<i>5,3</i>
Nurota tumani	mlrd so'm	7 986,9	7 601,9	257,7	127,3
<i>Jamidagi ulushi</i>	<i>% da</i>	<i>24,4</i>	<i>23,2</i>	<i>0,8</i>	<i>0,4</i>

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida tumanning ulushi (2025- yil yanvar-sentabr, % da)




Qurilish ishlari faoliyati

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Nurota tumanida jami 363,7 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2024-yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 66,8 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari tarkibi ulushi (2025-yil yanvar-sentabr, % da)

Qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar ulushi.



Qurilish ishlari tarkibi, hajmi
(2025-yil yanvar-sentabr, mlrd so'm)

	Jami qurilish ishlari hajmi	shu jumladan		
		Yirik korxolar	kichik korxona va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Navoiy viloyati	10 489,7	3 159,1	3 655,0	3 675,6
Nurota tumani	363,7	55,4	142,5	165,8

***Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar - bu, real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer avgustdonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga - barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilavgustdigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – bu, korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Reinvestitsiya - investitsiyalar bo‘yicha daromadlar ko‘rinishida olingan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar; investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish (qayta investitsiyalash).

Davlat mulkchiligi - mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlardir.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari ni o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o‘tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalar iborat bo‘lib, ular sotib olingan paytdagi bozor narxi bilan hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish xarajatlariga kiradi va amortizatsiya ajratmalari tarzida mahsus amortizatsiya fondida jamg‘ariladi.

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko‘rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq tadbirlar va ishlar majmui.

Kapital - sarmoya, keng ma’noda o‘z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo‘lgan jami vositalar va mablag‘lar; yangi qiymat keltiruvchi, o‘zini-o‘zi ko‘paytiruvchi qiymat.

Moliyaviy investitsiyalar - mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar orqali qo‘yilmalar kiritish.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar - aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg‘armasining kamida o‘ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar.

V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida tumanda jami 505,6 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,1 % ni tashkil etgan. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi 85,5 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining toifalari (1-oktabr holatiga, birlikda)

	2024- yil	2025- yil
Jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni	806	780
- yirik korxonalar	187	207
- kichik korxona va mikrofirmalar	619	573
- shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar	1	1

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni (yanvar-sentabr, birlikda)

	2024- yil	2025- yil
Jami xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni	74	73
- yirik korxonalar	5	25
- kichik korxona va mikrofirmalar	69	48
- shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar	-	1

Ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi
(yanvar-sentabr)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	2025-yil mlrd so‘m	2024-yilga nisbatan, % da	Jami hajimga nisbatan ulushi, % da	ming so‘m	2024-yil yanvar- sentabrga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	17 788,7	113,6	100,0	16 146,6	111,6
Nurota tumani	505,6	114,1	2,8	5 543,5	112,6


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2025-yil yanvar-sentabr)

	MLrd so‘m	O‘sish sur‘ati, % da	Jami hajimga nisbatan ulushi, % da
Xizmatlar – jami	505,6	114,1	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	39,7	119,6	7,8
moliyaviy xizmatlar	33,3	123,5	6,6
transport xizmatlari	124,7	110,5	24,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	121,4	109,2	24,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	17,2	108,7	3,4
savdo xizmatlari	213,8	113,5	42,3
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	9,0	111,0	1,8
ta’lim sohasidagi xizmatlar	6,9	104,3	1,4
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	6,0	112,8	1,2
ijara xizmatlari	13,7	119,3	2,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	10,3	113,4	2,0
shaxsiy xizmatlar	24,0	112,5	4,8
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,5	115,1	0,1
boshqa xizmatlar	6,6	114,6	1,3

Nurota tumani bo'yicha yuqori ulush savdo xizmatlari (42,3 %), transport xizmatlari (24,7 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,8 %)da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan ulush Me'morchilik muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,2 %)da qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish sur'atlari va takibi**
(2025-yil yanvar-sentabr, % da)



Nurota tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (123,5 %), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (119,6 %), ijara xizmatlari (119,3 %) Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (115,1 %) va da qayd etildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari yuqori bo'lmagan sohalar Ta'lim sohasidagi xizmatlar (104,3 %)da qayd etildi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Xizmat sohasi – bu, korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan har xil turdagi xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Boshqacha qilib aytganda, bu savdo, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog'idir. Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi. Xizmatning o'ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste'mol qilish davrining bir xil vaqtga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar hisoblanadi.

“Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko'rsatkichi – ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini o'lchovchi, iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi – bu, xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pul asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa muhandislik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

VI. ISTE'MOL BOZORI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2025- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 251 tani tashkil etib, shundan kichik korxona va mikrofirmalar soni 251 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 570,6 mlrd so'mni yoki 2024-yilning shu davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasida (umumiy ovqatlanishni qo'shgan holda) 16,6 mlrd so'mni tashkil qiladi va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 2,9 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 554,0 mlrd so'mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 97,1 % ni tashkil qildi.

Shu jumladan

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 47,4 mlrd so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 8,3 % ga teng bo'ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo‘shgan holda) tarkibi
(2025-yilning yanvar-sentabr holatiga, % da)



Chakana savdo tovar aylanmasi
(2025 yil yanvar-sentabr)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	Mrld so‘m	2024-yilga nisbatan, % da	Ming so‘m	2024-yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	11 549,0	110,2	10 482,9	108,3
Nurota tumani	570,6	110,2	6 256,6	108,8

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi
(2025 yil yanvar-sentabr)

	Mrld so‘m	2023- yilga nisbatan, % da	Jami hajimga nisbatan ulushi, % da
Jami	570,6	110,2	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Yirik korxonalar	16,6	141,9	2,9
Kichik tadbirkorlik korxonalari	130,3	113,6	22,8
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	376,3	108,2	66,0
Uyushmagan savdo tovar aylanmasi	47,4	108,7	8,3

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(2025 yil yanvar-sentabr)

	Chakana savdo tovar aylanmasi, Mrld so‘m	Chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da	Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi, Ming so‘m	Ulgurji savdo tovar aylanmasi Mrld so‘m
Navoiy viloyati	11 549,0	100,0	10 482,9	3 579,7
Nurota tumani	570,6	5,1	6 256,6	47,8

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya‘ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste‘mol sohasiga o‘tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat’i nazar, aholiga iste‘mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari,

banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalari balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlar o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

VII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


Tumanning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan isloxlarning pirovard natijasi aholi turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan tumanning tashqi savdo aylanmasi 6,1 mln AQSh dollarni tashkil etgan bo'lib, shundan eksport 4,4 mln AQSh dollarni, import 1,7 mln AQSh dollarni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi tahlili (2025-yilning yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)

	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport Hajmi	Import Hajmi
Navoiy viloyati	1 286,2	975,4	310,8
Nurota tumani	6,1	4,4	1,7
Tuman o'sish sur'ati, % da	90,9	84,2	113,9


Tumanning eksport-import hajmi (2025-yilning yanvar-sentabr, mln AQSH doll.)



Nurota tumanining eksport tarkibidagi tovar va xizmatlar hajmi
(2025 yil yanvar-sentabr)

	Ming AQSH doll.	O'sish sur'ati, % da
Jami eksport	4 406,0	84,2
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,1	17,9 m.
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	122,7	169,9
Sanoat tovarlari	1 011,2	52,3
Turli xil tayyor buyumlar	3 260,0	101,1

Nurota tumanining eksport tarkibidagi tovar va xizmatlar ulushi
(2025- yil yanvar-sentabr, % da)




Davlatlar kesimida eksport hajmi
(2025 yil yanvar-sentabr)

	Ming AQSH doll.	O'sish sur'ati, % da
Jami eksport	4 406,0	84,2
Rossiya Federatsiyasi	4 067,5	95,6
Qozog'iston	113,3	19,8
Hindiston	105,5	-
Slovakiya	51,9	-
Belarus	31,7	156,3
Qirg'iz Respublikasi	24,0	12,4
Iroq	12,1	-

Nurota tumanining import tarkibidagi tovar va xizmatlar hajmi
(2025 yil yanvar-sentabr)

	Ming AQSH doll.	O'sish sur'ati, % da
Jami import	1 742,3	113,9
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	54,0	94,7
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	150,8	177,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	14,8	36,0
Sanoat tovarlari	469,0	198,8
Mashinalar va transport asbob uskunalar	958,9	91,3
Turli xil tayyor buyumlar	94,8	154,6

Nurota tumanining import tarkibidagi tovar va xizmatlar ulushi (2025- yil yanvar-sentabr, % da)



Import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va transport uskunalari importining ulushi 55,0 % ni, sanoat tovarlari importining ulushi 26,9 % ni, nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari importining ulushi 8,7 % ni, turli xil tayyor buyumlar importining ulushi 5,4 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 3,1 % ni hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importining ulushi 0,9 % ni tashkil etdi.

Davlatlar kesimida import hajmi (2025 yil yanvar-sentabr)

	Ming AQSH doll.	O'sish sur'ati, % da
Jami import	1 742,3	113,9
Xitoy	1 249,3	2,1 m.
Turkiya	180,8	23,0
Belarus	147,2	180,3
Qirg'iz Respublikasi	54,0	94,7
Italiya	48,0	345,3 m.
Eron Islom Respublikasi	34,7	10,5 m.
Fransiya	24,8	-
Rossiya Federatsiyasi	3,5	145,0

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tovar - har qand vositalari ay ko'char mulk, shu jumldan valyuta va qiymatlari , elektr, issiqlik va boshqa turdagi energiya vositalari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunolari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

Tovarlar eksporti - agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Tovarlar importi - tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Tashqi savdo aylanmasi - mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat - tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat "Bojxona tarifi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili - yuklab jo'natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati - shartnoma valyutasidan qat'i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo'yicha tovarlar qiymati.


Xizmatlar (ishlar) eksporti - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi - norezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

VIII. KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI

Xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes subyektlarining ulushi, jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda (97,4 %), chakana savdo aylanmasida (97,1 %), qurilish ishlarida (84,8 %), kapital qo‘yimalarda (98,7%), xizmatlarda (85,5 %) va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda esa (88,3 %), ni tashkil qildi.


Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning ulushi
(2025- yil yanvar-sentabr oylarida, % da)



Tumanda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muxim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash, ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 108 ta yangi kichik biznes subyektlari (fermer va dexqon xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining asosiy qismi savdo yangi tashkil etilgan subyektlarning (12,0 %), sanoat (23,1 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (27,8 %) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (3,7 %) soxalariga soxalariga to‘g‘ri keldi.


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'yektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2025- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)**



**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)
subyektlarining amalga oshirgan eksport-import ko'rsatkichlari
(ming AQSH doll.)**

	Viloyat eksport	Tuman eksport	Viloyat import	Tuman import
Kichik tadbirkorlik subyektlari	46 213,6	387,1	129 395,2	1 365,5
shundan				
Kichik korxonalar	28 559,1	112,7	58 480,2	76,4
Mikrofimlar	17 654,5	274,4	70 915,0	1 289,1

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport-importdagi ulushi
(% da)**




IX. MOLIYAVIY FAOLIYAT

2025- yilning 1- sentabr holatiga Nurota tumanida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalarning debitorlik qarzdorliklar 8,6 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, 2025-yil 1- avgustga nisbatan 4,0 mlrd so'mga oshgan. Shuningdek, tumanda muddati o'tgan debitorlik qarzdorliklari mavjud emas.

(mlrd so'm)

	01.08.2025-yil holatiga		01.09.2025- yil holatiga		01.08.2025-yilga nisbatan farqi, +,-
	Jami debitor	Muddati o'tgan	Jami debitor	Muddati o'tgan	
Navoiy viloyati	14 640,4	12,8	17 856,0	16,1	3 215,5
Nurota tumani	4,6	-	8,6	-	4,0

Nurota tumanida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalarning debitorlik qarzdorliklari (mlrd so'm)




2025- yil 1- sentabr holatiga Nurota tumanida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalarning kreditorlik qarzdorliklar 16,2 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, 2025-yil 1- avgustga nisbatan 7,1 mln so'mga oshgan. Shuningdek, muddati o'tgan kreditorlik qarzdorliklar mavjud emas.

(mlrd so'm)

	01.08.2025-yil holatiga		01.09.2025- yil holatiga		01.08.2025-yilga nisbatan farqi, +,-
	Jami kreditor	Muddati o'tgan	Jami kreditor	Muddati o'tgan	
Navoiy viloyati	18 972,3	993,6	20 967,7	1 052,7	1 995,4
Nurota tumani	9,1	-	16,2	-	7,1

Nurota tumanida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalarning kreditorlik qarzdorliklari (mlrd so'm)



X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Nurota tumanida 2025-yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 1 834 tani tashkil qilib, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 1 377 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 75,1 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanadi soni (2025-yilning 1- oktabr holatiga, dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da	birlik	jamiga nisbatan ulushi, % da
Jami	1 834	100,0	1 377	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	461	25,1	338	24,5
sanoat	264	14,4	191	13,9
qurilish	105	5,7	68	4,9
savdo	422	23,0	329	23,9
tashish va saqlash	15	0,8	12	0,9
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	81	4,4	57	4,1
axborot va aloqa	15	0,8	12	0,9
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	30	1,6	28	2,0
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	441	24,2	342	24,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 422 ta (23,0 %), sanoatda 264 ta (14,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 461 ta (25,1 %) va qurilish 105 ta (5,7 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi (birlikda)



2025-yil 1- oktabr holatiga 1 167 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 709 ta, xususiy korxonalar 249 ta, oilaviy korxonalar 194 ta va boshqa tijorat korxonalari 15 tani tashkil etadi.

Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Navoiy viloyatida 2025-yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatga olingan chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni **410** tani tashkil qilib, Nurota tumanida 36 tani tashkil etadi, shundan faoliyat ko'rsatayotgan **26** tani tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumot

2025-yil 1- oktabr holatiga ko'ra Nurota tumanida jami 267 ta oilaviy korxona ro'yxatdan o'tgan bo'lib, faoliyat ko'rsatayotganlari esa 194 tani tashkil etadi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida jami **2** ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, 2024-yilning shu davriga nisbatan **-12** ta kam tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, birlikda)

	01.10.2024-yil		01.10.2025-yil	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Jami	115	100,0	133	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14	12,2	30	22,6
sanoat	26	22,6	25	18,8
qurilish	1	0,9	5	3,8
savdo	28	24,3	13	9,8
tashish va saqlash	1	0,9	3	2,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12	10,4	4	3,0
axborot va aloqa	2	1,7	1	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,9	20	15,0
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	30	26,1	32	23,9


2025-yil yanvar-sentabr oylarida jami 336 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 329 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 97,9 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

2025-yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlari soni 1615 tani tashkil etib, shundan 1 162 tasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2025-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 108 tani tashkil etadi. O'z navbatida faoliyatini tugatgan kichik biznes subyektlari soni 329 tani tashkil etmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi savdo 422 ta (26,1 %), sanoat 262 ta (16,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 456 ta (28,2 %) hamda qurilish 104 ta (6,4 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan va faoliyat ko'rsatavgustotganlarining ulushi (% da)



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni
(birlikda)**

	2024- yil 1- oktabr holatiga		2025- yil 1- oktabr holatiga	
	Soni	Jamiga nisbatan ulushi, % da	Soni	Jamiga nisbatan ulushi, % da

Jami	1 235	100,0	1 162	100,0
-------------	--------------	--------------	--------------	--------------

shu jumladan:

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	337	27,3	333	28,7
--	-----	------	-----	------

Sanoat	199	16,1	189	16,3
--------	-----	------	-----	------

Qurilish	80	6,5	67	5,8
----------	----	-----	----	-----

Savdo	344	27,9	329	28,3
-------	-----	------	-----	------

Tashish va saqlash	12	1,0	12	1,0
--------------------	----	-----	----	-----

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	58	4,7	57	4,9
--	----	-----	----	-----

Axborot va aloqa	8	0,6	12	1,0
------------------	---	-----	----	-----

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	0,6	6	0,5
---	---	-----	---	-----

Boshqa turlar	190	15,3	157	13,5
---------------	-----	------	-----	------

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshiravgustotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.


XI. DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning 1-oktabr holatiga Nurota tumani doimiy aholi soni 91,7 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 0,9 ming kishiga yoki 1,0 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni (2025-yil 1- oktabr holatiga, kishi)

	Jami aholi soni	shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
Navoiy viloyati	1 108 595	561 600	546 995
Nurota tumani	91 645	47 238	44 407

Nurota tumanining doimiy aholi sonida erkak va ayollarning ulushi (2025-yil 1- oktabr holatiga, % da)



Shuningdek, 2025-yilning 1-oktabr holatiga Nurota tumanida 51,5 % ni erkaklar va 48,5 % ni ayollar tashkil etgan.

Aholining tabiiy harakati
(yanvar-sentabr, kishi, birlikda)

	<i>Kishi</i>		Koeffitsienti, 1000 aholiga nisbatan promillda	
	2024-yil	2025-yil	2024-yil	2025-yil
Aholining tabiiy o'sishi	1 378	1 417	20,5	20,7
Tug'ilganlar	1 717	1 755	25,5	25,7
Vafot etganlar	339	338	5,0	5,0
Tuzilgan nikohlar	442	392	6,6	5,7
Nikoxdan ajralishlar	46	43	0,7	0,6
Ko'chib kelganlar	161	215	2,4	3,2
Ko'chib ketganlar	613	759	9,1	11,1


Tug'ilish darajasi. 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 1 755 kishini tashkil qildi va 2024-yilning shu davriga (1 717 kishi) nisbatan 38 taga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 25,7 promilleni tashkil qildi va 2024-yilning shu davriga (25,5 promille) nisbatan 0,2 promillega oshdi.

O'lim darajasi. 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar soni 338 kishini tashkil qildi va 2024-yilning shu davriga (339 kishi) nisbatan 1 taga o'limlar soni kamaydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 5,0 promilleni tashkil qildi va 2024-yil yanvar-sentabrga (5,0 promille) nisbatan o'zgarmadi.

Tabiiy o'sish. 2025-yilning yanvar-sentabr holatiga tabiiy o'sish 1 417 kishini tashkil qildi va 2024-yilning shu davri (1 378 kishi)ga nisbatan 39 kishiga ko'payganligini kuzatishimiz mumkin.


Nikohlar va ajralishlar. 2025-yilning yanvar-sentabrida FHDYO organlarida 392 ta nikohlar va 43 ta ajralishlar ro'yxatga olindi, ming aholiga nisbatan 5,7 promilleni tashkil qildi (2024-yilning tegishli davrida 6,6 ga) va 0,6 ga ajralishlar (2024-yilning tegishli davrida 0,7 ga) nisbatan 0,1 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy harakati (yanvar-sentabr oylarida kishi, birlikda)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Nurota tumani bo'yicha ko'chib kelganlar soni 215 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 759 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 544 kishiga (2024-yilning shu davrida qoldig'i minus 452 kishi) teng bo'ldi.

Aholining migratsiya ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida kishida)



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashaavgustdigan aholi ham kiritiladi.

Tuman aholisi – tuman hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan tumanlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2025-yil yanvar-sentabr oylarida Nurota tumanida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 385,8 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.


O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi	
	2024-yil yanvar-sentabr	2025-yil yanvar-sentabr
Navoiy viloyati	6 611,0	7 612,3
Nurota tumani	2 934,2	3 385,8

O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	Sentabr	Yanvar-sentabr
Jami	3 667,7	3 385,8
shu jumladan:		
Sanoat	1 638,4	1 567,3
Qurilish	4 286,7	4 087,7
Tashish va saqlash	-	-
Axborot va aloqa	-	-
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	9 818,6	8 662,3
Ta’lim	3 072,3	3 109,8
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	4 537,1	3 704,5
Boshqa faoliyat turlari	5 326,3	4 466,9

Shahar (tuman)lar kesimida oʻrtacha nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming soʻm)

	Sentabr	Yanvar-sentabr
Navoiy viloyati	7 803,2	7 612,3
Navoiy shahri	8 295,5	8 139,1
Zarafshon shahri	10 404,6	10 569,9
Gʻazgʻon shahri	4 329,1	3 668,6
<i>tumanlar:</i>		
Karmana tumani	5 866,1	5 784,5
Konimex tumani	8 531,6	8 367,6
Qiziltepa tumani	3 994,5	3 354,4
Navbahor tumani	4 287,1	3 784,0
Nurota tumani	3 667,7	3 385,8
Tomdi tumani	4 737,9	4 679,6
Uchquduq tumani	11 507,4	11 588,8
Xatirchi tumani	4 337,1	3 556,4

Navoiy viloyatida oʻrtacha oylik ish haqining eng past miqdori Qiziltepa tumani 3 354,4 ming soʻm (viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan 44,1 foiz), Nurota tumani 3 385,8 ming soʻmni (44,5 foiz) va Xatirchi tumani 3 556,4 ming soʻmni (46,7 foiz) tashkil etgan.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti – korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar – bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.

[illegible]

**NUROTA TUMANINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2025-yil yanvar-sentabr**

Nashrga mas'ul:
Nurota tumani statistika bo'limi

Buyurtma raqami №1

2025 y. Tiraj 9 nusxa

**Navoiy viloyat statistika boshqarmasi
Navoiy shahar. A.Temur ko'chasi, 4-uy
WWW.NAVSTAT.UZ**